

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Abdusalimov Ma'murjon To'ychi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "70420114 – Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyot" mutaxassisligi Magistranti

Annotatsiya. Tezida xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati yoritilib, rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar, uni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikning shakllanish jarayoni tahlil qilinib, rivojlanish bosqichlari belgilangan.

Kalit so'zlar: xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, bozor, tovar va xizmatlar.

KIRISH

Hozirgi davrda tadbirkorlik ma'lum bir davlat yoki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosati yo'nalishlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ushbu xususiyatlar O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida quyidagilarda o'z aksini topmoqda: birinchidan, iqtisodiyotda mulkchilikning xususiy tadbirkorlik va kichik biznes, dehqon, fermer xo'jaliklari, qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari kabi shakllarining ustuvor rivojlanishi taqozo etilayotgan bo'lsa, ikkinchidan, tadbirkorlikning xo'jalik yuritishi nuqtai nazaridan bozorni tadqiq qilish va faoliyatini oqilona yuritish va boshqarish masalalari dolzarb ekanligi namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imtiyoz va keng imkoniyatlar natijasida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanib bormoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bozorga tezda moslashuvchan bo'ladi, ya'ni bozorda nima xaridorgir bo'lsa, shunday mahsulot ishlab chiqaradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirishda ishchi o'rnini tashkil qilish katta mablag'larni talab etmaydi. Bu esa ishsizlik muammosini hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatda fuqarolarning mulkka bo'lgan anglami o'zgaradi, natijada fuqarolar tadbirkorlik bilan shug'ullanishga, halol pul topishga intiladi. Tadbirkorlar tili bilan aytganda «Nima ishlab chiqarish emas, nima sotish kerak» degan g'oya bilan faoliyat ko'rsatadilar. Buning natijasida ular tezda foyda ko'ra boshlaydilar. Shuning uchun ham Sh.Shodmonov, U.G'ofurovlar: «Tadbirkorlik faoliyati — shakli va sohasidan qat'i nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir», - deb yozadilar [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

So'nggi paytlarda O'zbekiston soliq tizimini isloh qilish borasida tashlangan qadamlar zamirida ham shunday maqsadlar yotgan bo'lsa ajab emas. 2018 yil 13 fevralida prezident Shavkat Mirziyoevning farmoyishi asosida, mamlakat soliq

qonunchiligi va amaliyotini o'rganib, ularni tubdan isloh qilish bo'yicha aniq takliflar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzilgan edi. 2022 yilning 27 mart kuni mazkur komissiya "O'zbekiston Respublikasining soliq tizimini isloh qilish konsepsiyasi"ni ishlab chiqib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola etdi. Konsepsiyada mamlakat soliq tizimini isloh qilish bo'yicha juda ilg'or takliflar o'rtaga tashlangan va islohotlarni izchillik bilan davom ettirish uchun qulay shart sharoitlar ishlab chiqilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Shuni xam aytib o'tish joyizki, avvalgi yillarda oldindan qat'iy belgilab qo'yilgan soliq tadbirkorni o'z faoliyatini hali boshlamasdan yoki faoliyatining dastlabki kunlaridayoq undan voz kechishga yoki faoliyatni noqonuniy yo'llariga o'tishga majbur qilishi mumkin. Bunga amaliyotda misollar ko'p. Shuni yodda tutishimiz kerakki, hozirda o'z davlatlari iqtisodiyotiga milliard dollar foyda keltirayotgan, yuz minglab aholini ish bilan ta'minlayotgan va dunyoning eng muvaffaqiyatli kompaniyalari sanalgan Nestle, Panasonic, Microsoft, Apple Inc., Google LLC, Amazon, Nike, Ikea, Dell, Sony, Mercedes, Coca Cola, Rolex, Walt Disney asoschilari o'zlarining ilk qadamlarini shu tarzda, o'z tomorqalarida yoki garajlarida kichik bir xususiy tadbirkor sifatida boshlaganlar. Bugungi kunda jahon xalqlari bu nomlarni juda yaxshi biladilar. O'zbek tadbirkorlari ham shunday ishlarga qodir, ular orasida ham shunday biznesning bo'lajak asoschilari bor. Ularga faqat imkoniyat kerak. Soliq qonunchiligi aynan shu bosqichda, bo'lajak tadbirkorlarimiz o'z faoliyatlariga qo'l siltab ketishlariga, ko'pgina kelajagi buyuk biznes g'oyalari amalga oshmay qolishiga sababchi bo'lib qolmasligi zarur. Bugun bir so'm undiraman deb, ertangi yuz so'mni yo'qotish to'g'ri bo'lmaydi.

Bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 57 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining salkam 80 foizi tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mamlakatimizda xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, bu yo'ldagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish maqsadida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan siyosat samarasida bugungi kunda mazkur soha milliy iqtisodiyotimizning chinakam tayanchiga aylandi. Davlat organlarining xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini cheklashga doir izchil choralar ko'rib, iqtisodiy islohotlarning me'yoriy- huquqiy bazasini takomillashtirish orqali ishbilarmonlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgani bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joiz, respublika bo'yicha 648 ming nafar ishsiz "Yoshlar daftari"ga kiritilgan. Yilning birinchi choragida 283 ming yoshlarning bandligi ta'minlangan. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun esa 36 ming qo'shimcha

to‘garaklar tashkil etilib, unga 874 mingga yaqin yoshlar jalb etilgan. So‘ngi uch oyda respublika miqiyosida 21 ming nafar yoshlar tadbirkorlikka o‘qitilgan.

Tadbirkorlikning mamlakatimiz bo‘ylab yanada keng quloqch yoyishi, uning nafaqat ichki bozorda, balki dunyo bozorlarida ham raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va eng muhimi, aholi bandligini ta‘minlashning hal qiluvchi omiliga aylanishi uchun hali bir qator qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish davr talabiga aylanmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Har qanday davlatda xususiy tadbirkorlik va biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy negizi, uning kelajagi hisoblanadi. Dunyoning barcha buyuk kompaniyalar tarixi oddiy birtadbirkor o‘z biznes g‘oyasini amalga oshirishi bilan boshlangan. Shunday ekan, xususiy tadbirkorlarni soliqqa tortishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish davlat uchun ham, uning iqtisodiyoti va budjeti uchun ham katta manfaat keltiradi. O‘zbekiston o‘z soliq qonunchiligini tubdan isloh qilishga astoydil kirishishi, islohot yetakchilarida xususiy tadbirkorlarni soliqqa tortish borasidagi mavjud amaliyotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyati mavjud. Bu borada amalga oshirilishi zarur bulgan asosiy vazifalardan biri xususiy tadbirkorlardan soliqni ularning sof foydasidan undirish tizimini joriy etishdir. Bu xususiy tadbirkor uchun ham, davlat uchun ham foydalidir. U mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanishiga, mamlakat budjetiga tushadigan soliq tushumlari ko‘lami ortishiga, mamlakat soliq amaliyoti jahon davlatlari soliq amaliyoti darajasiga ko‘tarilishiga, ko‘pgina soyaadagi yoki noqonuniy tadbirkorlik faoliyatlarini qonuniy yo‘lga o‘tishiga va nihoyat aholida soliq madaniyati ko‘tarilishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shodmonov Sh., Fofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. - T., 2017.- 416 b.
2. Qosimova M.S., Shodibekova D.A., Yusupov M.A. Samadov A.N. Kichik biznesni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. — T.: TDIU, 2015.— 240 b.
3. Alimova S.G. Tadbirkorlik va biznes faoliyati. Toshkent. 2018y. 38 b.
4. Adliya vazirligining Nodavlat notijorat tashkilotlar sohasi bo‘yicha 2020 yil uchun tahliliy ma‘lumotnomasi. – 4 b.